



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARI TIL HODISASI SIFATIDA

Xoshimova Azizaxon Sahobiddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika (ingliz tili)

yo'nalishi 2-bosqichi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7835086>

ARTICLE INFO

Received: 08th April 2023

Accepted: 16th April 2023

Online: 17th April 2023

KEY WORDS

So'z, so'z birikmasi, bosh bo'lak, hokim va tobe, sintaktik nazariya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zamonaviy lingvistikada Kognitiv tilshunoslikning o'рни, ahamiyati hamda asosiy xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida so'z va so'z birikmalarining o'rganilganlik darajasi hamda qiyoslanayotgan tillarda ularning tuzilishi yuzasidan izlanishlar olib borilgan.

Zamonaviy lingvistikada so'z birikmasi sintaksisi masalasi ilgari olimlar diqqatini o'ziga tortib kelmokda. XVIII asrdayoq M.V.Lomonosov o'zining «Rossiyskaya grammatika» / 1755/¹ nomli asarida so'zlarning birikish tabiati bilan qiziqdi. O'sha vaqtda «so'z birikmasi» tushunchasi mavjud bo'lmasa ham, sintaksisning bir bo'limida so'zlarning birikish yo'llari, so'z birikmalarining tuzilish formalariga alohida ahamiyat berildi. M.V.Lomonosovdan keyin so'z birikmasi problemi bilan A.X.Vostokov shug'ullandi. Uning grammatikasida ham sintaksisning bir bo'limi «so'zlarning qo'shilish haqida»² deb nomlandi va so'z birikmasi so'zlarning o'zaro qo'shilishi tarzida talqin qilindi. Keyingi tadqiqotlarda asosiy kommunikativ birlik gapga bo'lgan qiziqish kuchaya boshladi. Bu xol so'z birikmasiga bo'lgan qiziqishni bir muncha susaytirsam ham, so'z birikmasi masalasi olimlar diqqatidan chetda qolmadi.

Chunonchi, so'z birikmasi masalasiga F.F.Fortunatov asarlarida alohida ahamiyat berilgan³. U gapning tugallangan, so'z birikmalarini esa tugallanmagan so'z birikmasi deb ataydi. Uningcha, so'z birikmalari grammatik va nogrammatik so'z birikmalariga bo'linadi. Grammatik so'z birikmalarga ma'lum formal grammatik vositalar bilan birikkan ptitsa letit, xoroshaya pogoda tilidagi birikmalar, nogrammatik birikmalarga hech qanday formal kursatkichlarsiz birikkan poet Pushkin tilidagi birikmalar kiritiladi⁴. F.F.Fortunatovning sintaktik qarashlari rus grammatika fanining rivojlanishida katta rol` o'ynaydi. Uning qarashlari so'z birikmasi problemalarini ishlashda ma'lum darajada asos vazifasini o'tadi. F.F.Fortunatovning izdoshi A.M.Peshkovskiy fikricha, sintaksis grammatikaning bir bo'limi bo'lib, u so'z birikmasi formalarini o'rganuvchi sohadir⁵. Sintaksisga bunday ta'rif berish ikki sintaktik konstruktsiya – gap va so'z birikmasini shalkashtirishga olib keladi. A.M.Peshkovskiy

¹ Lomonosov M.V. Rossiyskaya grammatika. Poln.sobr.soch.t.7.M-L. 1952. s.89-387.

² Vostokov A.X. Russkaya grammatika. SP., 1839, s.219.

³ Fortunatov F.F. Izbrannie trudi. Slavyanskoye yazykovedenie. T.1, M.,1956, s.182.

⁴ O'sha asar. S.184.

⁵ Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshenii. M.,1956.,s.37.



gaplarning barcha xillari /soʻz- gaplardan tashqari/ soʻz birikmasi deb talqin qildi. Soʻz birikmasiga bunday munosabatda boʻlish soʻz birikmasi bilan gapni farqlamaslikka olib keladi.

A.A.Shaxmatov esa soʻz birikmasiga butunlay yangicha munosabatda boʻldi. Uning fikricha, soʻz birikmasi gap sostavida mavjud boʻlib, ikkinchi darajali boʻlaklarning bosh boʻlaklarga va ularning bir-birlariga boʻlgan aloqasini oʻrganadi⁶. Shunday qilib, unda soʻz birikmasi nazariyasi gap haqidagi nazariyaga butunlay boysundirilgandir. Uning sintaktik taʼlimotida soʻz birikmasiga alohida eʼtibor berilgan boʻlib eslatilgan kitobning uchdan bir qismini egallaydi⁷. Keyingi 30 yillikda sobiq sovet tilshunosligida soʻz birikmasi sintaksisini oʻrganish oʻzining yangi bosqichiga koʻtarildi. Uning nazariy jihatlarini ishlashda V.V.Vinogradov⁸, V.P.Suxotin⁹, N.N.Prokopovich¹⁰, kabi olimlar soʻz birikmasiga bagʻishlangan asarlari bilan katta ahamiyatga ega boldi. Ularning asarlarida soʻz birikmasi sintaksisi haqida taʼlimot gap haqidagi taʼlimot bilan bir qatorda alohida obʼekt sifatida belgilab berildi. Turkologiyada soʻz birikmasi sintaksisini mahsus boʻlim sifatida oʻrganish anʼanaga aylanib qolgan. Bu sohada prof. N.K.Dmitrivning asarlari alohida ajralib turadi¹¹. A.N.Kononov¹², E.I.Ubryatovalarning¹³ asarlarida ham soʻz birikmasiga katta oʻrin berilgan. Hozirgi davrda turli turkiy tillar materiallari asosida soʻz birikmasi problemalariga bagʻishlangan qator tadqiqotlarga egamiz.Chunonchi ular turk¹⁴, qozok¹⁵, ozarbayjon¹⁶, tatar¹⁷, turkman¹⁸ tillari boʻyicha qilingan ishlardir.

Bizga maʼlumki, turkologiyada soʻz birikmasi sintaksisi masalalarining ishlanishida prof.N.A.Baskakovning qoraqalpoq tili boʻyicha va shuningdek, turkiy tillar sintaktik tuzilishi haqidagi umumlashtiruvchi asarlari katta ahamiyatga ega¹⁹. Bu sohada L.Z.Gadjiyevaning tadqiqotlari ham alohida diqqatga loyiqdir²⁰. Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi to 1955 yilgacha mahsus tekshirish obʼekti boʻlmadi. Faqat prof. A.G.Gulomov oʻzining sintaksisga bagʻishlangan ishlarida bu masalaga alohida ahamiyat berdi²¹. Shundan keyin maʼlum bir soʻz

⁶ Shaxmatov A.A. Sintaksis russkogo yazika 2-e izdanie, L., 1941., s.276.

⁷ Oʻsha asar, s.274-420

⁸ Vinogradov V.V. Russkiy yazik. M., 1972, Voprosi izucheniya slovosochetaniya,VYa, 1950,Nº3.

⁹ Suxotin V.P. Problemi slovosochetaniya v sovremennom russkom yazike.V kn: Voprosi sintaksisa sovremennogo russkogo yazika. M.,1950

¹⁰ Prokopovich N.N. Slovosochetaniya v sovremennom russkom literaturnom yazike., M., 1950.

¹¹ Dmitrev N.K. Stroy tyurkskix yazikov.M-L, 1942. ego je. Detali prostogo predlojeniya. V sb.:Issledovaniya po sravnitelʼnoy grammatiki tyurkskix yazikov. Ch. I I I. Sintaksis. M.,1961.

¹² Kononov A.N. Grammatika sovremennogo Oʻzbekskogo literaturnogo yazika., M-L, 1960.

¹³ Ubryatova e.I. Issledoaniya po sintaksisu yakutskogo yazika. M-L, 1950.

¹⁴ Baskakov A.N. Slovosochetaniya v sovremennom turetskom yazike. M. 1974.

¹⁵ Balakaev M.B. Osnovnie tipi slovosochetaniy v kazaxskom yazike. Alma-ata., 1957.

¹⁶ Seydov Yu.M. Slovosochetaniya v ozerbaydjanskom yazike. Baku, 1966.

¹⁷ Zakiev M.Z. Sintaksicheskij stroy tatarskogo yazika. Kazanʼ,. 1963, ego je. Slovochetaniya. V kn. Sovremenniy tatarskiy literaturniy yazik. Sintaksis, M., 1971. s.79-128.

¹⁸ Sariev K. Slovosochetaniya v turkmenskome literaturnom yazike. Ashxabad, 1972.

¹⁹ Baskakov N.A. Tipi atributivnix slovosochetaniy v karakalpakskom yazike. VYa., 1956, Nº6. ego je. Slovosochetanie v Karakalpakskom yazike. V kn.: Isledovaniya po sravnitelʼnoy grammatike tyurkskix yazikov. Ch.I I I . M., 1961. s.50-60.

²⁰ Gadjiyeva L.Z. Osnovnie puti razvitiya sintaksicheskix struktur v tyurkskix yazikax. M., 1972.

²¹ Gulomov A.G. Oʻzbek tilida aniklovchilar. T., 1941. Sodda gap. T.,1955., s. 25-35.



birikmalari tiplari haqida dastlabki ilmiy tadqiqotlar paydo bo'la boshladi²². Ularda fe'l va ot so'z birikmalari alohida teshirish ob'ekti bo'ldi. Bundan keyingi davrlarda so'z birikmasi sintaksisiga bag'ishlangan ko'pgina ishlar maydonga keldi²³ va akadem grammatikalarda²⁴, oliygohlar uchun chiqarilgan darsliklarda²⁵ so'z birikmasi sintaksisi mahsus soha sifatida izohlana boshladi. Bu qisqacha obzorning o'zidanoq ma'lumki, so'z birikmasi problemi ancha ishlangan soha hisoblanadi. Ammo bu unda barcha masalalar ochiq-oydin degan gap emas.

Chunonchi, olimlar so'z birikmasining tabiatiga har xil munosabatdadir. Ular quyidagilar:²⁶ So'z birikmasining mohiyati va uning paydo bo'lishi haqida ikkita karama-karshi tendentsiya mavjud. Birinchisi, tilshunoslikda traditsion-sintaktik yonalish bulib, u asosan F.F.Fartunatov va uning izdoshlari A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatovlar nomi bilan bogliq. Ularning fikricha, So'z birikmasi faqat sostavidagina mavjud bolib, gapdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Sovet olimi akademik V.V.Vinogradovning fikri buning tomomila aksidir. Uning fikricha, so'z birikmasi so'z kabi nominativ funktsiyani bajaradi va u so'zning kengaygan formasidir. U gap sostavida ham va gapdan tashqarida ham bo'lishi mumkin. So'z birikmasining mohiyatini sintaktik nuqtai nazardan talqin qilish o'zining qadimiy traditsiyasiga ega. Sintaktik nazariyalarning rivojlanishi protsessida bu yo'nalishning nazariy asoslari asta-sekin o'z mavqeini mustahkamlamoqda va qaror toptirmoqda²⁷. Darhaqiqat, so'z birikmasini gap sostavidan, kommunikativ jarayondan ajratib karash uning funktsiyasini notug'ri tushuntirishga olib kelishi mumkin. Chunki har bir so'z birikmasi fikrning tog'ri amalga oshirilishi va aloqa aktining kommunikativ situatsiyasiga mos bo'lishi uchun faqat o'sha gap sostavidagina mavjud boladi. Shuning uchun ham so'z birikmalarini tilning nominativ birligi hisoblangan so'z bilan bir qatarga qo'yib, gapdan tashqarida ham mavjud bo'ldi deyish so'z birikmasining tabiatga unchalik mos kelmaydi. Tilning nominativ birliklari – So'zlar kishi ongida imkoniyat xolatida mavjud bolib umumiy tushunchalarni bildiradi va nutqda tayyor xolda ishlatiladi. So'z birikmasi esa konkret tushunchalarni ifoda qiladi va har gal nutq protsessida yangidan xosil qilinadi. Odatda, So'z birikmasiga berilgan ta'riflarda So'z birikmasining «bulingan» (raschlenennoe) tushunchalarni ifodalashi qayd qilinadi. Bu bo'lingan tushunchalarni ifodalash tilda o'z xolicha mavjud bulaolmaydi, u situatsiyaning, nutqning talabi bilan vujudga keladi.

So'z birikmasining gapdan tashqarida ham mavjud bo'lishi mumkinligiga ayrim olimlar gazetalardagi nominativ formadagi sarlavxalarni misol qilib keltiradilar. Bu uning alohida qollanilishining kurinishi emas, balki gazeta nutqining o'ziga xos xususiyatidir, bu birikmalarning mazmuni o'sha kontekstlardan bilib olinadi, ularni o'sha kontekstlardan ajratib qarash umuman mumkin emas. Bu haqda T.A.Tulina tugri fikr bildiradi:

²² Abdullaev A. Glagol' nie slovosochetaniya v O'zbekskom literaturnom yazike. Aftoref. diss. kand. Filolog. Nauk-Samarkand, 1959; Xaliyarov X. Imennie slovosochetaniya O'zbekskom yazike. Aftoref. Diss.kand. filolog.naukSamarkand, 1966.

²³ Safaev A.S. Issledovaniya po sintaksisu O'zbekskogo yazika T.1968. Abdullaev F.A. So'zlar o'zaro qanday boglanadi. T.1972. Sharipov M.K.Hozirgi O'zbek tilida suz birikmasi sintaksisi masalasi.

²⁴ Hozirgi O'zbek tili I I- qism. T.,1966: O'zbek tili grammatikasi. I I-kism, T.,1978.

²⁵ G'ulomov A.G. Asqarova M.A., Hozirgi O'zbek tili., T., 1966.

²⁶ Vinogradov V.V. Voprosi izucheniya slovosochetaniya. VYa, 1954, №3

²⁷ Skoblikova e.S. Sovremenniy russkiy yazik. Sintaksis prostogo predlozheniya. Iz-do «Prosvetshenie» M. 1979, s.7



«Своеобразным исключением являється пласт газетных заголовков; представляющих намеренно неполное обозначение некоторых ситуаций при помощи словосочетаний, нарочитая неполнота смысла такого заголовка призвана заинтересовать или даже заинтересовать читателя которой винуден ознакомится с соответствующим текстом, чтобы извлечь из него недостающую информацию²⁸.

Hozirgi davrda olimlarning deyarli ko'pchiligi so'z birikmasi masalasiga sintaktik nuqtai nazardan yondoshish uning tabiatiga bir muncha to'g'ri kelishini ta'kidlamodalar. Biz ham uz ishimizda so'z birikmasiga sintaktik jihatdan yondashish ma'qul deb hisoblaymiz, chunki bu hol so'z birikmasini nutq protsessida situatsiya bilan bog'lab o'rganishda ancha qulayliklar tug'diradi. Qanday birikmalarni so'z birikmasi hisoblash mumkin?. Bu masalada ham olimlar o'rtasida birlik korinmaydi. Ayrim olimlar sintaksisning ob'ekti so'z birikmasi deb hisoblaydi, gapni ham so'z birikmalarining biri deb talqin qiladi²⁹. Boshqa bir avtorlar bu masalaga gap bo'laklarining sintaktik funktsiyasi nuqtai nazardan yondoshadilar va predikativ birikmalarni ham so'z birikmasi hisoblaydilar. Ular aniqlovchili, to'ldiruvchili, xolli nopredikativ birikmalarni ajratadi³⁰. Uchinchi grupp olimlar predikativ birikmani so'z birikmasi sanamaydilar. Ular o'zaro tobelanish aloqasida bog'langan nopredikativ birikmalarnigina so'z birikmasi qatoriga kiritadilar. Biz ot birikmalarining ilmiy va badiiy uslublardagi qo'llanilishi xususiyatlarini tadqiq qilishda keyingi olimlar fikriga kushilamiz.

So'z birikmasining tarkibi masalasidir. Ayrim olimlar mustaqil va yordamchi so'zning o'zaro birikishini so'z birikmasi hisoblasa³¹, boshqalari ikki mustaqil so'zning grammatik aloqaga kirishi so'z birikmasini hosil qilishin aytadilar. Akad. V.V.Vinogradov esa so'z birikmasini predmet, harakat va hokazolarni ifodalash qobilyatiga ega bolgan: yagona murakkab ma'nolarni ifodalaydigan: sintaktik jihatdan tashkil topgan va sematik jihatdan bir butun hisoblangan ikki mustaqil so'zning o'zaro birikuvidir deb masalaga aniqlik kiritadi. Hozirgi davrda so'z birikmalarining ikki mustaqil so'zdan tashkil topishi so'z birikmalarining formal shakllanishida asosiy kriteriy ekanligini tilshunoslar tan oladilar. O'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining o'rganilishi va ularning grammatik tabiati haqida. Turkologiyada ot so'z birikmalari har xil aspektda o'rganilgan. Chunonchi prof. A.G.Gulomov o'zining « O'zbek tilida aniqlovchilar»³², nomli ishida gap bo'laklaridan aniqlovchilarning grammatik tabiati va strukturasini mufassal analiz qiladi. Unda berilgan misollarning hammasi aniqlovchi tarzida analiz qilinsa ham aslida ular so'z birikmalaridir va hokim so'zi bilan birga olingan aniqlovchilarning tiplari, morfologik ifodalanishi, grammatik aloqasiga atroflicha o'rin berilgan. G.Achilov esa turkman tili materiallari asosida aniqlovchi va aniqlovchili so'z birikmalarini mahsus tekshiradi. Aniqlovchili so'z birikmalarining har xil tiplarini grammatik planda analiz qiladi. Bunday tadqiqot ozarboyjon tilida G.Aliyev tomonidan ham amalga oshirilgan³³. Prof. N.A.Baskakov o'zining « Qoraqalpoq tilida so'z birikmalarining tiplari»³⁴, nomli ishida ot so'z birikmalarining tiplari, uning komponentlari

²⁸ Tulina T.A. Funktsional'naya tipologiya slovosochetaniy. Izd-vo «Visshaya shkola», Kiev-Odessa, 1976, str.19.

²⁹ Peshkovskiy A.M. Kursatilgan asar, s.37.

³⁰ Peshkovskiy A.M. Kursatilgan asar, s. 65-69, Suxotin V.P. Kursatilgan asar, s.162.

³¹ Dmitrev N.K. Gramatika bashkirskogo yazika. M-L, 1948, s.203.

³² Gulomov A.G. O'zbek tilida aniklovchilar. T., 1941.

³³ Aliev G.S. Opređenje v sovremennom azerbaydjanskom yazike. Aftoref.diss. kand. nauk.Baku.,1950.

³⁴ Baskakov N.A. Kursatilgan asar, VYa, 1956, №6.



orasidagi grammatik aloqaning xususiyatlariga to'xtaladi va komponentlarining o'zaro semantik munosabatiga alohida ahamiyat beradi. X.Xoliyarov va Dj.Andabekovalarning kandidatlik dissertatsiyalarida ot So'z birikmalari umumiy planda o'rganilib, ularning grammatik tabiati, birikish yo'llari, komponentlarining morfologik ifodalanish yollari va ba'zi bir semantik jihatlariga diqqat qilinadi³⁵. Keyinchalik ot So'z birikmalariga A.S.Safayevning³⁶, F.A.Abdullayevning³⁷, M.K.Sharipovning³⁸ asarlarida ham yetarlicha urin berilgan. A.N.Baskakovning « Slovosochetanie v sovremennom turetskom yazike» nomli asarida esa atributiv so'z birikmalari qatorida alohida o'rganilgan. Bunda avtor so'z birikmalarini faqat struktura nuqtai nazaridan o'rganib ularning tiplarini keng planda analiz qilgan. Muallif fikricha, bu struktural tiplar turkiy tillarning barchasida uchraydi va ularni konkret tillar materiallariga tatbiq qilish mumkin.

References:

1. Kubryakova Ye.S. O kognitivnoy lingvistike i semantike termina "kognitivniy" / Vestnik Voronejskogo gosudarstvennogo universiteta. seriya: Lingvistika i mejkulturnaya kommunikatsiya. - Voronej, 2001. 4-10. - s.
2. Lakoff Dj. Lingvisticheskie geshtalti. V kn.: Novoe v zarubejnoj lingvistike. M.: Progress. 1981. Выр. X. 350-368. -s.
3. Larin B.A. Ocherki po frazeologii // Ocherki po leksikologii, frazeologii i stilistike: Uch. zap. / LGU. — L., 1956. — № 198. — 201-202 str
4. Lomonosov M.V. Rossiyskaya grammatika. Poln.sobr.soch.t.7.M-L. 1952. s.89-387.
5. Losev A.F. Yazikovaya struktura. — Moskva: MOPI, 1983.
6. M.Minskiy Issledovaniya sovremennoy kognitivnoy lingvistiki, kotoroe prishlo v ... Ponyatie «freym» vvel v 1974 g. amerikanskiy uchenyy. SPb: Nauka, 1998. 14-21. - s.
7. Mirtojiyev M.M., Muhamedova S.X. O'zbek tilida so'z valentliklari. — Toshkent: TDPU, 2011.
8. Mukarramov I. Xozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. T. Fan. 1984. b.73-75
9. Muminova D. O'zbek tili leksikologiyasi. T. —Fan||, 1981. b. 42-43
10. Петрашень Г.И., Хинен Э.В. Об инженерных уравнениях колебаний неидеально-упругих пластин // Труды МИАН. Т. 95. — Л.: Наука, 1968. — С. 151 — 183.
11. Филиппов И.Г. Уточнение дифференциальных уравнений колебания вязкоупругих пластин и стержней // Прикл.мех. — 1986. — 22, №2. — С. 71-78.
12. Мирзакобиллов Н.Х. Колебания трехслойных пластин частного вида// Дисс. на соис. уч. ст. канд. наук.- Москва, 1992 г.,- 139 с.
13. Филиппов И.Г., Чебан В.Г. Математическая теория колебаний упругих и ваязкоупругих пластин и стержней.-Кишинев: «Штиинца», 1988.- 188 с.

³⁵ Xoliyarov X. Imennnie slovosochetaniya v sovremennom O'zbekskom yazike. Aftoref. Diss.kand.filolog.nauk. Samarkand., 1966, Andabekova Dj. Imennnie slovosochetaniya s opornim slovom virajennim imenem sushchestitel`nim. Aftoref.diss.kand.filolog. Frunze., 1974.

³⁶ Safaev A.S. Kursatilgan asar.

³⁷ Abdullaev F.A. Kursatilgan asar.

³⁸ Sharipov M.K. Kursatilgan asar.



14. Худойназаров Х.Х., Филиппов И.Г. Уточнение дифференциальных уравнений продольно – радиальных колебаний круговой цилиндрической вязкоупругой оболочки // Прикл. мех. – 1990. – 26, №2. – С. 63 – 71.
15. Худойназаров Х., Яхшибоев Ш.Р. Поперечные гармонические колебания трехслойной пластинки // Проб. Архит. и строит. 2020. №2.– С. 151-156.
16. Х.Худойназаров, В.А.Скрипняк, Ш.Р.Яхшибоев Нестационарные поперечные колебания трехслойной вязкоупругой пластинки // Проблемы механики АН РУз 2018. Вып. 2. С. 27 – 32.
17. Kh Khudoynazarov and Sh.R Yaxshiboyev 2020 The Mathematical Model of Transverse Vibrations of the Three-Layer Plate. IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 614 012062. DOI: 10.1088/1755-1315/614/1/012062.
18. Yaxshiboyev Sh. R. Chetlari sharnirli mahkamlangan elastik plastinkaning antisimmetrik tebranishlari // Me'morchilik va qurilish muammolari. 2020. №1.2-qism – С.106-109.